TOSHKENT SHAHRI ATROF HUDUDLARIDA SUBURBANIZATSIYANING RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALARNI ISHLAB CHIQISH

Umurova Nigora Yoqubjon qizi
Guliston Davlat Universiteti
E-mail: nigoraumurova4@gmail.com, ORCID: [0009-0009-7944-6761]

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Toshkent shahri atrof hududlarida suburbanizatsiyaning shakllanishi va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari iqtisodiy-geografik, demografik, hududiy-rejalashtirish va statistik yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Suburbanizatsiya shahar markazidan tashqi hududlarga aholining, uy-joy qurilishining, xizmatlar va iqtisodiy faoliyatning siljishi bilan birga kechadigan ko‘p omilli hududiy jarayon sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda 2024–2026-yillardagi rasmiy statistik ma’lumotlar, xalqaro urbanizatsiya metodologiyalari hamda ilmiy adabiyotlar umumlashtirildi. Toshkent shahri va Toshkent viloyati bo‘yicha aholi soni, uy-joy qurilishi, qishloq hududlarida uy-joy obyektlari, qurilish faolligi va funksional aloqadorlik ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi. Maqolaning ilmiy yangiligi sifatida suburbanizatsiyaning zamonaviy tendensiyalarini baholash uchun mualliflik indikatorlar tizimi va integral indeks modeli taklif etildi. Natijalar suburbanizatsiya jarayonining faqat uy-joy qurilishi bilan emas, balki transport, mehnat bozori, xizmatlar, yer resurslaridan foydalanish va ekologik yuklama bilan birgalikda baholanishi lozimligini ko‘rsatadi. Yakunda Toshkent aglomeratsiyasi doirasida boshqariladigan, transportga integratsiyalashgan, ko‘p markazli va ekologik muvozanatga yo‘naltirilgan suburban rivojlanish modeli ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *suburbanizatsiya, Toshkent aglomeratsiyasi, periurban hudud, urbanizatsiya, shahar atrofi, uy-joy qurilishi, demografik transformatsiya, transport aloqadorligi, GIS, hududiy rejalashtirish, barqaror rivojlanish.*

Kirish. O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarini tartibga solish va shahar hududlarining barqaror rivojlanishini ta’minlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi PF-5623-son “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni urbanizatsiya jarayonlarini boshqarishning institutsional va hududiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan muhim huquqiy hujjatlardan biridir [1]. Mazkur hujjat doirasida urbanizatsiyaning iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Toshkent O‘zbekistonning eng yirik urbanizatsiyalashgan markazi sifatida nafaqat ma’muriy poytaxt, balki mamlakatning iqtisodiy, ilmiy, transport va xizmatlar markazidir. Shu sababli uning hududiy ta’siri ma’muriy shahar chegaralaridan ancha keng bo‘lib, Toshkent viloyatining tutash hududlari bilan intensiv demografik va iqtisodiy aloqalarni yuzaga keltiradi. 2024-yil 1-aprel holatida Toshkent shahrining doimiy aholisi 3,058.4 ming, Toshkent viloyatiniki 3,066.0 ming kishini tashkil etgan [6]. 2025-yil 1-iyulga kelib bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 3,145.2 ming va 3,134.1 ming kishiga yetgan [7]. Mazkur raqamlar Toshkent shahri atrofida kechayotgan jarayonni faqat “shahar aholisi ko‘payishi” bilan izohlash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Shaharga tutash hududlarda uy-joy qurilishi, yangi transport koridorlari, ishlab chiqarish va xizmat obyektlari, savdo markazlari, ta’lim hamda rekreatsiya funksiyalarining rivojlanishi suburbanizatsiyaning ko‘p funksiyali tabiatini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi Toshkent shahri atrof hududlarida suburbanizatsiyaning zamonaviy tendensiyalarini aniqlash, ularni o‘lchash uchun mualliflik indikatorlar tizimini shakllantirish hamda hududiy rivojlanishni boshqarishning ilmiy-amaliy modelini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari Toshkent shahri – Toshkent viloyati tizimida demografik va uy-joy jarayonlarini qiyosiy tahlil qilish; suburbanizatsiyaning zamonaviy tendensiyalarini

indikatorlar orqali baholash; hududiy rivojlanishga ta’sir etuvchi transport, xizmatlar, qurilish va yer transformatsiyasi omillarini tizimlashtirish; suburban hududlar uchun boshqariladigan rivojlanish ssenariylari va amaliy mexanizmlarni taklif etish.

Tadqiqot obyekti – Toshkent shahri va unga funksional jihatdan tutash Toshkent viloyati hududlarining urban-periurban tizimi. Tadqiqot predmeti – ushbu tizimda aholi joylashuvi, uy-joy qurilishi, transport aloqadorligi, xizmatlar va iqtisodiy faoliyatning hududiy qayta taqsimlanishi natijasida yuzaga kelayotgan suburbanizatsiya tendensiyalaridir.


Asosiy qism. Toshkent shahri va Toshkent viloyati aholisi hajmining bir-biriga yaqinlashuvi aglomeratsion makonning ikki tomonlama demografik o‘sishini ko‘rsatadi. 2024-yil 1-yanvarda Toshkent shahrida 3,040.8 ming, Toshkent viloyatida 3,051.8 ming doimiy aholi qayd etilgan [10]. 2025-yil 1-yanvarda mos ravishda 3,112.8 ming va 3,108.5 ming kishiga yetgan [11]. 2025-yil 1-iyulda esa 3,145.2 ming va 3,134.1 ming kishini tashkil qilgan [7]. 2026-yil 1-aprel holatida Toshkent shahri aholisi 3,195.9 ming, Toshkent viloyati aholisi 3,174.6 ming kishiga yetgan [12].

1-jadval. Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy aholi dinamikasi

Ko‘rsatkich	Toshkent shahri	Toshkent viloyati	Izoh
2024-01-01, ming kishi	3 040,8	3 051,8	rasmiy statistika
2025-01-01, ming kishi	3 112,8	3 108,5	rasmiy statistika
2025-07-01, ming kishi	3 145,2	3 134,1	rasmiy statistika
2026-04-01, ming kishi	3 195,9	3 174,6	rasmiy statistika
2024→2025 o‘sish, %	2,37	1,86	muallif hisob-kitobi
2025-07-01→2026-04-01 o‘sish, %	1,61	1,29	muallif hisob-kitobi

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari [7; 11; 12]. 2024–2026-yillardagi o‘sish ko‘rsatkichlari muallif tomonidan hisoblandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi PQ-245-son “Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, shahar va tuman markazlarini rivojlantirish hamda aglomeratsiya hududlarini shakllantirishga qaratilgan master-rejalarni ishlab chiqish vazifalari belgilangan [2]. Mazkur yondashuv Toshkent shahri atrofidagi hududlarning funksional jihatdan qayta tashkil topishi, yangi turar joy massivlarining shakllanishi va markaz-periferiya aloqalarining kuchayishini ilmiy jihatdan tadqiq etish zaruratini oshiradi.




1-diagramma. Toshkent shahri va Toshkent viloyati aholisi dinamikasi. Muallif tomonidan rasmiy statistik ma’lumotlar asosida tuzildi [7; 10–12].

Suburbanizatsiyaning eng tez kuzatiladigan belgilaridan biri – uy-joy fondining shahar chekkasi va unga tutash hududlarda kengayishidir. Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil yakuniy dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 15,9 mln m² uy-joy foydalanishga topshirilgan bo‘lib, shundan 1 997,7 ming m² Toshkent viloyatiga, 1 000,1 ming m² Toshkent shahriga to‘g‘ri kelgan [13]. Demak, Toshkent viloyatidagi yangi uy-joy maydoni shahar ko‘rsatkichidan qariyb ikki baravar yuqori.

2-jadval. 2025-yilda foydalanishga topshirilgan uy-joy maydonining Toshkent shahri va viloyati bo‘yicha taqsimoti

Hudud	2025-yil uy-joy maydoni, ming m²	Respublikadagi ulushi, %	Toshkent shahri bilan nisbati
Toshkent viloyati	1 997,7	12,56	1,998
Toshkent shahri	1 000,1	6,29	1,000
Ikki hudud jami	2 997,8	18,85	—

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi [13]. Ulush va nisbatlar muallif tomonidan hisoblandi.



2-diagramma. Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 2025-yil uy-joy qurilishi. Muallif tomonidan tuzildi [13].

Toshkent viloyatida 2025-yilda foydalanishga topshirilgan uy-joyning 1 498,9 ming m² qismi qishloq hududlariga to‘g‘ri kelgan. Bu viloyatdagi jami yangi uy-joy maydonining 75,0 foizini tashkil etadi [13]. Mazkur ko‘rsatkich suburbanizatsiyaning muhim jihatini ochib beradi: yangi uy-joylar faqat shahar tipidagi aholi punktlarida emas, balki qishloq hududlarida ham paydo bo‘lib, ularni shaharning mehnat, xizmat va transport tizimlari bilan yanada kuchliroq bog‘lamoqda.

2025-yilda Toshkent viloyatida 6,7 mingta individual xonadon foydalanishga topshirilgan; Toshkent shahrida bu ko‘rsatkich 5,9 ming tani tashkil etgan [14]. Shuningdek, 2025-yil yanvar–sentabr oylarida Toshkent viloyatining qishloq hududlarida 4 878 ta turar joy va yotoqxona obyektlari foydalanishga topshirilgan [15]. Bu ma’lumotlar suburban uy-joy kengayishi nafaqat ko‘p qavatli massivlar, balki individual uy-joylar hisobiga ham amalga oshayotganini ko‘rsatadi.

Uy-joy bilan bir qatorda yangi ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarining qurilishi ham suburban makonning funksional murakkablashuvini kuchaytiradi. 2024-yil yanvar–iyul oylarida yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta jihozlash ishlarining O‘zbekiston bo‘yicha jami qurilishdagi ulushi 68,8 foizni tashkil qilgan; Toshkent viloyatida yangi qurilish hajmi 4 549,1 mlrd so‘m bo‘lgan [16].

2025-yil yanvar–oktabrida Toshkent viloyatida qurilish ishlari hajmi 26,9 trln so‘mga yetgan, Toshkent shahrida esa 72,2 trln so‘mni tashkil qilgan [17]. Shahar hajmining katta bo‘lishi markaziy iqtisodiy konsentratsiyani saqlayotganini bildiradi, viloyatdagi yuqori qurilish faolligi esa periferik hududlarda ishlab chiqarish va turar-joy makonining tez o‘zgarayotganini ko‘rsatadi.

3-jadval.

Qurilish va uy-joy ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkich	Toshkent shahri	Toshkent viloyati	Tahliliy talqin
2025-yil qurilish ishlari, trln so‘m	72,2	26,9	markaziy va periferik qurilish bir vaqtda o‘smoqda
2025-yil uy-joy, ming m²	1 000,1	1 997,7	viloyatda uy-joy ekspansiyasi yuqori
2025-yil individual xonadon, ming	5,9	6,7	atrof hududlarda individual uy-joy talabi yuqori
Qishloq uy-joy maydoni, ming m²	—	1 498,9	periferik uy-joylashuvning muhim bazasi

Muxokama va natijalar. Suburbanizatsiyaning hududiy transformatsiya mexanizmi: Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Toshkent atrofi hududlarida transformatsiya quyidagi ketma-ketlikda kuchayadi: 1) uy-joy talabi va yerga bo‘lgan ehtiyojning ortishi; 2) yangi turar-joy qurilishi; 3) transport qatnovlari va kundalik migratsiyaning kengayishi; 4) savdo va xizmatlarning mahalliylashuvi; 5) ish o‘rinlarining periferiyaga qisman siljishi; 6) qishloq xo‘jaligi yerlaridan boshqa maqsadlarda foydalanish bosimining kuchayishi. Ushbu zanjirning har bir bo‘g‘ini keyingisini rag‘batlantiradi va natijada periurban hududning mustaqil funksional makonga aylanishi yuz beradi.

Shu sababli suburbanizatsiya “uy-joy qurilishi” indikatoriga qisqartirilsa, uning haqiqiy ko‘lami pasaytirib baholanadi. Aksincha, transport, xizmatlar, mehnat bozori va yer qoplamasi o‘zgarishlarini birlashtirish orqali jarayonning real hududiy mexanizmini aniqlash mumkin.

Toshkent shahri va viloyatida suburbanizatsiyaning zamonaviy tendensiyalari:

1. Demografik-periferik o‘sish tendensiyasi: 2024–2026-yillarda Toshkent shahri va viloyatida aholining parallel o‘sishi suburban makonning demografik sig‘imi ortayotganini ko‘rsatadi [7; 11; 12]. Shahar aholisi o‘sish sur’ati viloyatnikidan yuqori bo‘lsa-da, viloyatdagi yangi uy-joy maydoni hajmining kattaligi aholi joylashuvining periferik qismlarida ham sezilarli salohiyat shakllanayotganini ko‘rsatadi. Bu holat markazga kelib-ketuvchi kundalik migratsiya bilan birgalikda “yashash periferiyada – ishlash markazda” modelining kengayishiga zamin yaratadi.

2. Uy-joy suburbanizatsiyasining tezlashuvi: Toshkent viloyatida 2025-yilda 1,997.7 ming m² uy-joy foydalanishga topshirilgani, shundan 1,498.9 ming m² qishloq hududlariga to‘g‘ri kelgani suburban uy-joylashuvning kuchli ekanini ko‘rsatadi [13]. Bu jarayonni ijobiy yoki salbiy deb bir tomonlama baholashdan ko‘ra, uning infratuzilma bilan ta’minlanganlik darajasini baholash muhimdir. Uy-joy o‘sishi yo‘l, suv, kanalizatsiya, maktab, tibbiyot, jamoat transporti va yashil hududlar bilan parallel rivojlanmasa, hududiy nomutanosiblik yuzaga kelishi mumkin.

3. Transportga bog‘liq suburbanizatsiya: Suburban hududlarning jozibadorligi markazga yetib borish vaqtiga bevosita bog‘liq. Bruecknerning urban sprawl modelida transport xarajatlarining pasayishi shahar makonining kengayishiga turtki beruvchi omillardan biri sifatida qaraladi [5]. Toshkent sharoitida ushbu tendensiya avtomobil yo‘llari, jamoat transporti yo‘nalishlari, temir yo‘l va boshqa yuqori sig‘imli transport koridorlari bilan bog‘liq ravishda namoyon bo‘lishi mumkin.

4. **Politsentriklashuv va “suburban markazlar”ning shakllanishi:** Zamonaviy suburbanizatsiyaning muhim belgisi – periferiyaning faqat yotoqxona hududi bo‘lib qolmasligi. Yirik savdo, ta’lim, tibbiyot, xizmat va ishlab chiqarish obyektlari ayrim tashqi markazlarda to‘planishi natijasida yangi lokal markazlar shakllanadi. Toshkent aglomeratsiyasidagi Chirchiq, Yangiyo‘l, Keles va boshqa shahar hamda aholi punktlarining funksional roli haqidagi tadqiqotlar ham markaz-periferiya aloqalarining murakkablashayotganini ko‘rsatadi [18; 19].


Muallfilik indikatorlari asosida suburbanizatsiyani baholash: Maqolada taklif etilgan STI modeli suburbanizatsiyani 6 ta o‘zaro bog‘langan komponent orqali baholaydi. 2024–2026-yillardagi statistik ma’lumotlar, ilmiy adabiyotlar va Toshkent aglomeratsiyasi bo‘yicha mavjud tadqiqotlar asosida komponentlar uchun dastlabki standartlashtirilgan qiymatlar shakllantirildi. Ushbu qiymatlar hududiy monitoringning yakuniy statistik indeksi emas; ular metodik modelni sinovdan o‘tkazuvchi mualliflik bahosidir.

4-jadval.

Suburbanizatsiya Tendensiyalari Indeksi (STI)ning mualliflik komponentlari

Komponent	Belgilanishi	Og‘irlik	Dastlabki qiymat	Mazmuni
Demografik bosim	D	0,20	0,82	aholi o‘sishi va joylashuv bosimi
Uy-joy kengayishi	H	0,20	0,88	yangi uy-joy maydoni va individual xonadonlar
Qurilish faolligi	C	0,15	0,91	qurilish va yangi obyektlar faolligi
Transport aloqadorligi	T	0,15	0,79	markaz bilan funksional qatnov imkoniyati
Xizmatlar markazlashuvi	S	0,15	0,74	savdo, ta’lim, tibbiyot va xizmatlar
Yer transformatsiyasi	L	0,15	0,76	qishloq/periurban yerlarining funksional almashuvi

Manba: mualliflik metodikasi; statistik bazasi – Milliy statistika qo‘mitasi [7; 12–17], xalqaro metodikalar [2; 20] va ilmiy adabiyotlar [5; 8; 9; 18].



3-diagramma. Mualliflik suburbanizatsiya tendensiyalari indikatori komponentlari. Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Keltirilgan dastlabki baholashda eng yuqori komponent – qurilish faolligi (0,91), undan keyin uy-joy kengayishi (0,88) va demografik bosim (0,82) turadi. Bu Toshkent atrofi hududlarida suburbanizatsiyaning hozirgi bosqichida moddiy-makoniy kengayish omillari kuchli ekanini ko‘rsatadi. Biroq transport va xizmatlar komponentlarining nisbatan pastroq qiymati shuni anglatadiki, yangi turar-joy makonining barcha qismlari bir xil darajada kompleks urban funksiyalarga ega emas.

Indeksni tumanlar kesimida qo‘llash uchun har bir komponent bo‘yicha 5–10 ta aniq ko‘rsatkichni yig‘ish tavsiya etiladi. Masalan, D uchun aholi o‘sishi, migratsiya saldosi va zichlik; H uchun yangi uy-joy maydoni, xonadonlar soni va qurilish maydoni; T uchun markazga o‘rtacha safar vaqti, jamoat transporti bekatlari zichligi va yo‘l tarmog‘i zichligi; S uchun maktab, poliklinika, savdo va xizmat obyektlari zichligi; L uchun yer qoplamasi o‘zgarishi va qurilish maydonining qishloq xo‘jaligi yerlariga nisbati olinishi mumkin.

Toshkent atrofi hududlarida suburbanizatsiyani aniq chegaralashning asosiy muammosi – ma’muriy va funksional hududlarning mos kelmasligidir. Shu bois GIS texnologiyalaridan foydalanish suburban makonning real chegaralarini aniqlashda muhim metodik vosita bo‘la oladi.

5-jadval.

Toshkent suburban hududlarini GIS monitoring qilish uchun tavsiya etiladigan qatlamlar. Muallif tomonidan tuzildi.

GIS qatlam	Asosiy indikator	Ma’lumot manbasi	Kutiladigan natija
Aholi	zichlik, o‘sish, migratsiya	statistika, aholi punktlari	demografik hotspotlar
Uy-joy	yangi qurilish maydoni	kadastr, sun’iy yo‘ldosh	qurilish ekspansiyasi
Transport	yo‘l zichligi, safar vaqti	yo‘l tarmog‘i, GPS/GTFS	funksional integratsiya
Yashil qoplama	NDVI	Sentinel/Landsat	ekologik o‘zgarish
Qurilgan maydon	NDBI/qurilgan uy-joy	Sentinel/Landsat	urban sprawl chegarasi
Xizmatlar	obyektlar zichligi	ochiq ma’lumotlar/GIS	xizmatlar yetishmovchiligi


Tadqiqot natijalari asosida Toshkent shahri atrof hududlari uchun “Boshqariladigan ko‘p markazli suburban rivojlanish modeli” taklif etildi. Modelning asosiy g‘oyasi – yangi uy-joylarning hududiy kengayishini transport, xizmatlar, ish o‘rinlari va yashil infratuzilma bilan bir vaqtda rivojlantirish.

6-jadval.

Toshkent suburban hududlarini boshqariladigan rivojlantirish modeli. Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Model elementi	Asosiy chora	Hududiy natija	Monitoring indikatori
1. Demografik boshqaruv	aholi prognozi va sig‘im bahosi	ortiqcha yuklamaning oldini olish	aholi o‘sishi
2. Uy-joy	kompleks massiv + infratuzilma	barqaror yashash muhiti	uy-joy m²/aholi
3. Transport	jamoat transporti +	qatnov vaqtining	o‘rtacha safar vaqti

	multimodal tugun	qisqarishi	
4. Politsentrizm	lokal xizmat va ish markazlari	markazga bosimning kamayishi	markazdan tashqari ish o‘rinlari
5. Yashil infratuzilma	yashil koridor va himoya zonalari	ekologik barqarorlik	NDVI, yashil maydon
6. GIS boshqaruvi	raqamli monitoring paneli	tezkor rejalashtirish	STI va GIS qatlamlari



4-diagramma. Suburbanizatsiya rivojlanish ssenariylarining konseptual STI ko‘rsatkichlari. Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy yangiligi uch yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, Toshkent atrofi suburbanizatsiyasi uy-joy qurilishi bilan cheklanmay, demografik, transport, xizmat, qurilish va yer transformatsiyasi komponentlarining yagona hududiy tizimi sifatida konseptual asoslandi. Ikkinchidan, suburbanizatsiyaning zamonaviy tendensiyalarini o‘lchash uchun oltita komponentli STI – Suburbanizatsiya Tendensiyalari Indeksi taklif etildi. Uchinchidan, mazkur indeks boshqariladigan ko‘p markazli suburban rivojlanish modeli bilan bog‘landi.

Tadqiqotda aniqlangan eng muhim empirik dalillardan biri – Toshkent viloyatida yangi uy-joy qurilishining yuqori hajmi. 2025-yilda viloyatda 1 997,7 ming m² uy-joy foydalanishga topshirilgan bo‘lib, bu Toshkent shahridagi 1 000,1 ming m² ko‘rsatkichdan qariyb ikki baravar ko‘p [13]. Biroq mazkur holatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri “shahardan aholining ommaviy chiqib ketishi” deb talqin qilish metodik jihatdan to‘g‘ri emas. Chunki uy-joy qurilishi tabiiy o‘sish, yangi oilalar tashkil topishi, investitsion talab va ichki migratsiyaning birgalikdagi natijasi bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi muhim natija – 2024–2026-yillarda Toshkent shahri va Toshkent viloyati aholisining parallel o‘sishi. 2026-yil 1-aprel holatida shahar aholisi 3 195,9 ming, viloyat aholisi 3 174,6 ming kishiga yetgan [12]. Bu holat markaz va periferiyaning o‘zaro

to‘ldiruvchi rivojlanishini ko‘rsatadi. Demak, Toshkent aglomeratsiyasi uchun faqat “markazga tortilish” yoki “markazdan chiqib ketish” kabi bir yo‘nalishli model emas, balki ko‘p markazli demografik-iqtisodiy tizim modeli ko‘proq mos keladi.

Uchinchi natija – qishloq hududlaridagi uy-joy qurilishining suburbanizatsiya uchun alohida ahamiyati. 2025-yilda Toshkent viloyatida topshirilgan uy-joyning 75 foizga yaqini qishloq hududlariga to‘g‘ri kelgan [13]. Bu qishloq makonining shahar ta’siri ostida qayta funksionallashayotganini ko‘rsatadi. Shu bois kelajakdagi tadqiqotlarda “suburban qishloq” kategoriyasini alohida ajratish maqsadga muvofiq.

XULOSA. Tadqiqot natijalari Toshkent shahri atrof hududlarida suburbanizatsiya jarayoni ko‘p komponentli va dinamik hududiy transformatsiya ekanini ko‘rsatdi. Jarayonning zamonaviy bosqichida aholi sonining o‘sishi, uy-joy qurilishining kengayishi, qishloq hududlarida turar-joy fondining ortishi, qurilish faolligining kuchayishi va shahar–periferiya funksional aloqalarining murakkablashuvi bir-biri bilan uzviy bog‘langan.

Maqolada taklif etilgan STI – Suburbanizatsiya Tendensiyalari Indeksi suburbanizatsiyani oltita yo‘nalish: demografik bosim, uy-joy kengayishi, qurilish faolligi, transport aloqadorligi, xizmatlar markazlashuvi va yer transformatsiyasi orqali kompleks baholash imkonini beradi. Mazkur indikatorlar tizimi keyingi tadqiqotlarda GIS asosida tumanlar va mahallalar kesimida sinovdan o‘tkazilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi PF-5623-son Farmoni. *Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. LexUZ hujjat.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi PQ-245-son qarori. *Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. LexUZ hujjati.

3. BMT-Habitat, Yevropa Komissiyasi, FAO, IHTT, Jahon banki. Urbanizatsiya darajasini qo‘llash: Xalqaro taqqoslashlar uchun shaharlar, shaharchalar va qishloq hududlarini aniqlash bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. 2021.

4. Vatt P. Suburbanizatsiya. In: Xalqaro geografiya ensiklopediyasi. Wiley, 2017.

5. De Vidovich L. Shahar atrofi va suburbanizatsiya. Inson geografiyasi ensiklopediyasi. Springer, 2026-yil.

6. Bryukner J.K. Urban sprawl: Diagnosis and Remedies // International Regional Science Review. 2000. Vol. 23 (2). S. 160–171. DOI: 10.1177/016001700761012710.

7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Hududlar bo‘yicha doimiy aholi soni. (18-aprel 2024-yil).

8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Mintaqalar bo‘yicha doimiy aholi. 2025-yil 10-iyul.

9.Allen A. Ekologik rejalashtirish va shahar atrofi interfeysini boshqarish: shakllanayotgan sohaga qarashlar // Atrof-muhit va urbanizatsiya. 2003. Vol. 15 (1). 1-bet.

10. Tacoli C. Shahar va qishloq rivojlanishi o‘rtasidagi aloqalar // Atrof-muhit va urbanizatsiya. 2003. Vol. 15 (1). S. 3-12. DOI: 10.1177/095624780301500111.

11. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Hududlar bo‘yicha 2024-yil boshiga doimiy aholi soni. 11-yanvar 2024-yil.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasida demografik vaziyat, 2024-yil yanvar-dekabr. 2025-yil 23-yanvar

13. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Qaysi hududda aholi soni eng ko‘p? 30 Aprel 2026

14. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2025-yilda 15,9 million kvadrat metr uy-joy foydalanishga topshirildi. 2026-yil 28-yanvar.